# MUHOKAMA TAHLILLARGA ASOSLANDI

(Boshi 1-sahifada.)

Shuningdek, sessiyada "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi 5041-sonli hamda 2023 yil 31 yanvardagi 39-sonli qarorining tumandagi ijrosi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruv organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6166-sonli Farmonining ijrosi to'g'risida"gi hamda "Tumanda jinoyatchilikni barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi masalalar borasida ham soha vakillarining ma'lumotlari eshitildi.

Sessiya kun tartibiga qo'yilgan "O'quvchilarni ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini yo'lga qo'yishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi to'qqizinchi va "Tuman hokimining sessiyalar oralig'ida qabul qilingan qarorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi so'nggi masala bo'yicha mas'ullarning chiqishlaridan so'ng, barcha hisobotlar deputatlar tomonidan atroflicha muhokama etilib, tegishli qaror loyihalari qabul qilindi.



**M. TO'XTASHEVA.**

Yangi bino

# YANGI YILGA AJOYIB TUHFA

**So'nggi yillarda Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida mahalla tizimining jamiyatdagi nufuzini oshirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, uning vazifa va vakolatlari doirasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayapti.**

Xususan, tumanimiz markazida joylashgan "Toshkent" mahalla fuqarolar yig'inining yangi binosini foydalanishga topshirilishi 915 ta oilada istiqomat qiluvchi 3464 nafardan iborat mahalla aholisi uchun ana shunday e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir namunasi bo'ldi.

Ushbu binoning ochilish marosimida tuman hokimining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limining boshlig'i Dilbar Shonazarova, "Nuroniy" jamg'armasi tuman bo'limining boshlig'i Baxtiyor Normahammatov, shuningdek, mehnat faxriylari, mahalla faollari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.




Davlat xususiy sherikchiligi asosida tadbirkor Parviz Nuraliyev tomonidan qariyb 479 million so'm mablag' evaziga qurilib, foydalanishga topshirilgan ushbu binoda mahalla raisi hamda o'rinbosarlari uchun alohida xonalar mavjud. Ularning har biri zamonaviy moddiy-texnika vositalari va mebel jihozlari bilan ta'minlangan.

– Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2024 yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi, – deydi ushbu mahalla raisi Sayyora Qo'nisheva: – Mahallamiz aholisining qariyb yarimidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida mahallaga zarur yumush bilan kelgan kishilar xonalarning torligi va kichikligi uchun yozning jaziramasi va qishning qahraton kunlarida ham tashqarida navbat kutib turishga majbur bo'lishardi. Bugun yangi, barcha sharoitlarga ega binoda xalqimizga xizmat qilishdan baxtiyormiz. Prezidentimizning "Mahalla xalq bilan davlat o'rtasida ko'prik bo'lishi kerak", degan so'zlarida juda katta ma'no mujassamdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi. Shu bois, bundan buyon mahallada samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh mezoniga aylanadi.

Tadbirda ishtirok etgan nuroniy otaxon va onaxonlarimiz kelgusida mazkur inshoot ko'p yillar davomida xalqimizga xizmat qilishini va yurtimizni tinchligini so'rab, duoga qo'l ochishdi.

**SH. MAMIROV.**

Uch avlod uchrashuvi

# QALBLARGA MUHRLANDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoyishiga binoan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda "Vatan himoyachilari kuni" bayrami munosabati bilan joriy yilning 20-dekabridan 2024-yilning 20-yanvar kuniga qadar mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, sportchilar, harbiy xizmatchilar va jamoat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda joylarda madaniy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazilishi belgilandi.**

Shu munosabat bilan dekabr oyining 22 - kunida hududimizdagi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli N-sonli harbiy qismda "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" shiori ostida piru badavlat nuroniylar, fayzli oila sohiblari hamda yosh avlod vakillari ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tashkillashtirildi. Uchrashuvda yoshi ulug' otaxonlarimiz hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida o'z dil so'zlarini, samimiy fikrlarini bildirdi. Shundan so'ng, o'lkamizning iqtidorli ijodkorlari el-yurtga sadoqat, ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan she'rlaridan o'qib berdilar.



Tadbirda 7-umumta'lim maktabining iqtidorli o'quvchilari hamda harbiy xizmatchilar o'rtasida sportning shaxmat-shashka turi bo'yicha tashkil etilgan bellashuv ham barchaning diqqat-etiborida bo'ldi. O'zining mazmun-mohiyati bilan ishtirokchilarning qalbidan muhim o'rin egallagan uchrashuvda "Zakovat" intellektual o'yinlari, ayniqsa keskin bahs va munozaralar asnosida juda qiziqarli kechdi. Tadbir so'ngida harbiy qism boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari Sherzod O'tashev so'z olib, tashkilotchilarga o'z minnatdorligini bildirdi. Bugun keksalik gashtini surayotgan otaxonlarning har bir so'zi, hayotiy tajribasi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda g'oyatda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

Shu kuni uchrashuvda harbiy qism badiiy havaskorlik jamoasining iste'dodli xonandalari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar ham faxriy ustozlar hamda mehmonlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Shirin diydor ta'sirida faol va fidoyi hamyurtlar esga olindi. Dorilomon kunlar shukronasiga hamohang ma'rifiy suhbatlar davomida ertangi kun istiqboli yo'lidagi xayrli ishlar bardavom bo'lishi uchun ezgu tilaklar bildirildi.

Aytish joizki, ushbu tadbir yoshlarni mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, inson huquqlarini ta'minlash, aholi farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar, yosh avlod kelajagi yo'lida barpo etilayotgan bunyodkorlik borasidagi erishilgan ijobiy natijalar hamda keksa avlod vakillarining boy hayotiy tajribalari bilan tanishtirish yo'lida dasturilamal vazifasini o'taydi.

**N. QO'YLANOVA,**
**tuman Axborot-kutubxona markazi xodimi.**